

YOSH TARJIMON TO`GARAGINING YOSH TARJIMONLARI

Norqobilova Shahnoza Bo'riyevna

Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabining ingliz tili o`qituvchisi, "Yosh tarjimon to`garagining raxbari

Ziyodullayeva Laziza

9-"A" sinf o`quvchisi

Ismatullayev Eldurbek

9-"B" sinf o`quvchisi

O'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish o'quv jarayonining asosi bu doimiy e'tiborni talab qiladigan pedagogik muammodir. Ijodkorlik inson faoliyati jarayoni bo'lib, uning natijasida sifat jihatidan yangi ma'naviy qadriyatlar va materiallar yaratiladi. Bu shaxsning erkin rivojlanishini nazarda tutadi. Turli xil to`garaklar o'quvchilari tom ma'noda ijodkorlik bilan nafas olishadi. Ijodiy faoliyat o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning bilim faolligini va ma'lum moyilliklarini rivojlantirish bilan bog'liq. Ijodkorlik rivojlantiruvchi funksiyaga ega bo'lib, bu zamonaviy ta'lim tizimida juda muhimdir. Shuningdek, adabiy o`qish va ijodkorlik o`rtasida yaqin bog'liqlik mavjudligini ham ta'kidlash lozim. Shu munosabat bilan tasavvur, ijodiy fikrlash, fantaziya rivojlanadi, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik va faollik tarbiyalanadi, tahlil qilish, taqqoslash, kuzatish, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyati shakllanadi, moyillik, qiziqishlar shakllana boshlaydi va ijodkorlik asosidagi ehtiyojlar ham shakllanadi.

Bugungi kunda farzandlarimizning bilimli, dono shu bilan birgalikda chet tillarini o`qitishga qiziqishini ortirish maqsadida Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi tashkil etilgan. Taxsil olayotgan o`quvchilarning bilimga bo`lgan qiziqishlari kundan kunga ortib bormoqda. O`quvchilar yosh bo`lishlariga qaramasdan o`zbek va chet el adiblarining she`rlarini tarjima qilib, o`zlarining mahoratlarini ko`rsatib kelishmoqda. Yosh tarjimon to`garagiga rahbarlik qilar ekanman o`quvchilarimning o`zlariga bo`lgan ishonchlari ularning kelajakka bo`lgan intilishlarini ko`rib ko`zlarimiz quvonadi.

Ijod maktabimizda taxsil olib kelayotgan o`quvchilarimiz Ismatullayev Eldurbek va Ziyodullayeva Lazizaxon ham maxorat bilan tarjima qilayotgan yosh tarjimonlar safidan o`rin olib kelishmoqda.

Ismatullayev Eldurbek ingliz va o`zbek adiblarining she`rlaridan tarjimalaridan namunalar Philip Larkin qalamiga mansub she`riga tarjima

The North Ship

I saw three ships go sailing by,
Over the sea, the lifting sea,
And the wind rose in the morning sky,
And one was rigged for a long journey.
The first ship turned towards the west,
Over the sea, the running sea,
And by the wind was all possessed
And carried to a rich country.

The second ship turned towards the east,
Over the sea, the quaking sea,
And the wind hunted it like a beast
To anchor in captivity.
The third ship drove towards the north,
Over the sea, the darkening sea,
But no breath of wind came forth,
And the decks shone frostily.
The northern sky rose high and black
Over the proud unfruitful sea,
East and west the ships came back
Happily or unhappily:
But the third went wide and far
Into an unforgiving sea
Under a fire-spilling star,
And it was rigged for a long journey.
Shimoliy kema
Ko'rdim uch kemaning suzayotganin
Biri olislarni maqsad qilgandi
Oltin va vuqorli dengiz ustida
Shamol erta tongdan ko'tarilgandi
Ilk kema vujudin g'arbiga to'g'irlab
Oltin dengiz ila poyga ayladi
Shamol ilk kemani sekin o'g'irlab
Tilla mamlakatga yo'lin boyladi
Ikkinchisi esa sharqni ko'zladi
Go'zal dengiz uzra sekin, ohista
Shamol yirtqich kabi uni quvladi
Bilmam qamal uchun yo neni istar
Shimolga yo'l oldi uchinchi vujud
Tunga yuz tutguvchi dengiz chorladi
Biroq shamol xuddi bo'lgandek nobud
Shu on palubalar shamdek porladi
Shimollik osmonlar baland va qora
Dengiz g'ururlangan, ko'maksiz, behush
Qaytdi ikki kema bo'lmay deb pora
Ularning taqdiri xush yoki noxush
Biroq so'ngi kema suzar uzoqqa
Bir dam to'xtamasdan go'yoki sayyor
Balki uning yo'li to'la tuzoqqa
Lek olis safarga u edi tayyor

Yosh tarjimonimiz Eldurbek Abdulla Oripovning qish nomli she`rini ingliz tiliga ham tarjima qilib o`zbek shoirlarning she`rlarini chet el o`quvchilariga taqdim qilishni ko`zda tutgan.

QISH

Kuz ham ketdi, mana,
Qish keldi qayta,
Eski ashulamni yana aytaman.
Seni qarshi oldim nechanchi marta,
Qish, senga nechanchi bora qaytaman.
Gaz o`choq joyida, po`stin ham tayyor,
Sening hurmating bu, qirchillama qish.
Undov belgisidek teraklar qator,
Qishga shu tariqa aytishar olqish.
Bunday payt gashtlidir choyxona ko`proq,
Chollarga o`sha joy bo`ladi shafye.
Choyxona tomonga tortsa-da oyoq
Duch kelaveradi negadir kafe.
Shundoq davom etar hayot baribir,
Topilar biz uchun xilvat go`sha ham.
Ko`pdan sog`intirgan davramiz qizir,
Axir eski do`stlar yana bo`lmish jam.
Yana yodga tushar u olis yillar,
Qishning qadamiga alyor aytamiz.
Tongda chumoliday chiqqan bo`lsak gar,
Shomda arslon bo`lib uyga qaytamiz.

WINTER

Autumn has passed, and here you are,
Winter returns, a bright northern star.
The old song I sing, once more it's true,
How many times have I welcomed you?
Winter, I greet you as I always do.
The stove is lit, my coat's prepared,
For your chill, winter, respect is declared.
Like exclamation marks, trees stand tall,
To honor the season with nature's call.
Tea houses now hold a special charm,
For old men, they bring a welcome warm.
Though my feet lead me to the teahouse door,
A café appears where none stood before.
Yet life moves on, it finds its way,
A quiet corner awaits someday.
Our circle of friends, long missed, will thrive,
Together once more, our spirits alive.

Old days return to our hearts once more,
As winter's steps knock on the door.
At dawn, like ants, we begin the race,
By dusk, like lions, we claim our space.

Yana bir yosh ijodkor tarjimon qizimiz Ziyodullayeva Laziza ham ingliz shoirlarini she`rlarini o`zbek tiliga qilgan tarjimasi ko`rib yosh avlodlarimizni naqadar iqtidorli ekanlaridan xursand bo`lamiz.

Qish Tongi She'ri

(Ogden Nash)

Qish – ajoyibotlar shohi,
Qorodamga o‘xshar daraxtlar.
Uylar misli bayramning torti,
Oq shakarga to‘planar ko‘llar
Yorqin, tiniq, oppoq manzara,
Dunyo go‘zal bu juda yaxshi
Budir yoshlik quvnoq mavsumi.
Tilingdadir kumush qish naqshi.
Qor yog‘gani o‘zgacha chiroy,
Afsus, undan faqat qolar loy.

Winter morning poem

Winter is the king of showmen,
Turning tree stumps into snow men
And houses into birthday cakes
And spreading sugar over lakes.
Smooth and clean and frosty white,
The world looks good enough to bite.
That's the seasons to be young,
Catching snowflakes on your tongue!
Snow is snowy when it's snowing.
I'm sorry it's slushy when it's going.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. O'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk bo'lishiga xizmat qiladi.

Tayyorladi: Norqobilova Shahnoza Bo'riyevna.